# Buxoro davlat universiteti
# 70260502 - Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti
# ta’lim yo’nalishida o’qitiladigan fanlar bo’yicha tuzilgan
# FANLAR KATALOGI

| T/R | Fanning kodi* | Fanninig nomi | Fanning qisqa tafsifi | Kredet miqdori | Semestr | Professer-o‘qituvchilar: F.I.SH., ilmiy unvoni va darajasi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Majburiy fanlar** | | | | | | |
| 1. | ITM1102 | Ilmiy tadqiqot metodologiyasi | Fanni o`qitishdan maqsad-talabalarning ilmiy faoliyat jarayonida o`z-o`zini anglash va to`g`ri fikrlash mahoratini shakllantirish, ilmiy tadqiqot dasturini tuzishda nazariya va amaliyot birligiga rioya qilishga o`rgatishdan iborat | **2** | 1 | Falsafa fanlari boyicha falsafa doktori(PhD) Narziyev Z.I. |
| 2. | AITM1103 | Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodologiyasi | “Adabiyotshunoslikda ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fani 1-semestrda o‘qitiladi. “Adabiyotshunoslikda ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fani barcha fanlar bilan bog‘liq holda ish ko‘rganligi bois, qator fanlar uchun asos vazifasini o‘taydi.Badiiy asarni tahlil qilish uchun yo’llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlarini barcha adbiy tur hamda janrlar bo’yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o’rganish, umuman adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi. | **3** | 1 | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 3. | NP1105 | Nazariy poetika | “Nazariy poetika” fanining maqsadi – badiiy asarni tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlari barcha adabiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, umuman adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi | **5** | 1 | |
| 4. | JAM1210 | Jahon adabiyoti muammolari | Mazkur fanni o‘qitishning maqsadi shuki, badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berish, talabalarning adabiy-estetik tafakkurini, yuksaltirish, ilmiy mushohadaning vujudga kelishi ko‘nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyatini shakllantirishdan iborat. “Jahon adabiyoti muammolari” fanining vazifasi talabalarga, badiiyat namunalarini individual, milliy va umuminsoniy jihatlarini ilmiy tahlil qilishni o‘rgatish, jahon xalqlari adabiyotining millat va jamiyat ravnaqidagi o‘rnini va ahamiyatini talabalarga tushuntirish, talabalarda badiiy adabiyotni tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish, badiiy asarni idrok qilish hamda uni filologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish, adabiyot va inson o‘rtasidagi munosabatni badiiylik qonuniyatlari asosida o‘rgatish, jahon xalqlari adabiyotida yangi shakllanayotgan va ommalashayotgan adabiy hamda ilmiy metod va yo‘nalishlarni jamoatchilik fikriga tayangan holda tushuntirish, milliy va umuminsoniy adabiy-nazariy an'analarni xalqning adabiy-estetik didini yuksaltirishdan iborat. | **10** | 2,3 | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 5. | AT1108 | Adabiyotshunoslik tarixi | “Adabiyotshunoslik tarixi” fanining tarixini o‘qitishdan maqsad jahon estetik tafakkuri va adabiyotshunosligi erishgan yutuqlarni zamon talablari nuqtayi nazaridan qayta nazardan o‘tkazishdir. Ushbu fanning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ldi:- jahon adabiyotshunosligi tarixi manbalarini global ko‘lamda ekanini tasavvur qilish;- adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyotidagi davriy bosqichlar mohiyatini aniqlash;- Sharq va G‘arb tafakkurlararo mushtarak va farqli jihatlarga tipologik yondashish;- qadimgi davrda yaratilgan (Shumer, Yunon, Rim, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyoda yaratilgan adabiyotshunoslikk oid asarlarni o‘rganish;- Uyg‘onish davri adabiyotshunosligining jahon adabiy-nazariy tafakkuri tarixidagi o‘rnini belgilash; - Adabiyotshunoslik taraqqiyotiga xizmat qilgan adabiy oqimlarning adabiy tafakkur tarixidagi o‘rnini belgilash;- XX asr yangi davr adabiyotshunosligining vujudga kelishida omil bo‘lgan nazariya va konsepsiyalarning adabiyot tarixidagi o‘rnini belgilashdag iborat. | **8** | 1,2 | |
| 6. | JAT1110 | Jadid adabiyoti tarixi | Magistrantlarda “Jadid adabiyoti tarixi” bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish, ularni milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalash hamda kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun zamin hozirlashdan iborat.Fanning vazifalari – magistrantlarda shu fanning asosiy masalalari, mavzulari, xulosalari, umumlashmalari haqida tasavvur tug‘dirish, ularni badiiy asar tahliliga o‘rgatishdan iborat. | **10** | 1.2 | |
| 7. | MFO`M110 3 | Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi | “Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi” fanini o'qitishdan maqsad – oliy ta'lim bosqichida | **3** | 3 | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | adabiyotshunoslikka oid fanlarning mazmun-mohiyati, ularni o'qitishda o'ziga xosliklarni, jumladan, O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida o'qitiladigan adabiyotshunoslikaa oid fanlarning barcha turkumlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, nazariy-adabiy va tarixiy-adabiy kurslarning qurilishi va qo'yilishi, ularning bir-biri bilan va boshqa filologik fanlar bilan bog'liqligi hamda ularning filologik ta'limdagi o'rni haqida; adabiyotshunoslik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarning asosiy shaklllari va ularni olib borish metodikasi; oliy ta'lim o'qituvchisining darsga tayyorgarlik ko'rish, talabalarning mustaqil ishlari va ilmiy faoliyatiga rahbarlik qilish hamda o'zining kasbiy darajasini oshirib borish bo'yicha bajaradigan ishlarini o'rganishdan iborat. | | | |
| **Tanlov fanlari** | | | | | | |
| 1. | BMP2104 | Badiiy matn poetikasi | Badiiy matn poetikasi fanining dolzarb muammolari, ma’lum davr adabiy-madaniy muhitining o‘ziga xosligi haqidagi qarashlar va ularga munosabat, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi kabi masalalar to‘g‘risida ma’lumot berishi bilan dolzarbdir. Jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda ushbu fan muammolarining milliy ma’naviyat va qadriyat masalalari bilan chambarchas bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega. Ajdodlar merosining tarixiy poetikaga bog‘liq holda o‘rganilishi talabalarni ma’naviyatga yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi. | 4 | 1 | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2. | ASM2104 | Adabiyotshunoslikning struktural metodlari | Fanning maqsadi-talabalarda badiiy asarni tahlil qilish metodlari, xususan, struktural tahlil metodlarining o`ziga xosliklari bilan yaqindan tanishtirish, shu asosda ularda lirik, prozaik asarlarni struktural tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Talabalar adabiyotshunoslikning struktural metodlari bilan tanishish jarayononida ularda matn bilan ishlash ko‘nikmasi shakllanadi, ilmiy izlanishlar olib borishda imkon yaratiladi. | 4 | 1 | |
| 3. | MTP2207 | Mumtoz tarixiy poetika | Mumtoz tarixiy poetika Mazkur o‘quv fani mumtoz tarixiy poetikaning nazariy muammolarini o‘rganish, milliy adabiyot tarixini nazariy aspektda o‘rganish va uning madaniy va ma’naviy ildizlariga oid muhim muammolarni tahlil qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Badiiy asarlarni va adabiy namunalarni tarixiy-nazariy aspektda o’rganish orqali talabalarning dunyoqarashi va ilmiy tafakkurini kengaytirish nazarda tutilgan. | 7 | 2 | |
| 4. | BTA2207 | Badiiy tahlil asoslari | Mazkur o‘quv fani badiiy tahlil asoslarining nazariy muammolarini o‘rganish, magistrantlarda badiiy asarni tahlil qilish ko‘nikmasini yanada takomillashtirish, buning uchun tahlil metodlarini teran o ‘rganishni nazarda tutadi.Milliy adabiyot namunalarini milliylik tamoyillari asosida tahlil qilish bilan talabalarni milliylik ruhida tarbiyalashga xizmsat qiladi. | 7 | 2 | |
| 5. | EYO`AM2304 | Eng yangi o`zbek adabiyoti muammolari | Eng yangi o’zbek adabiyoti muammolari: XX-XXI asrlar o‘zbek adabiyoti genezisi bevosita milliy uyg‘onish harakati va adabiyoti, jumladan milliy ma'rifatparvarlar ijodidan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi.Yuqori malakali adabiyotshunos mutaxassislar tayyorlash, magistrantlarda “XX-XXI | 4 | 3 | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | asrlar adabiyoti" fani bo'yicha yetarli bilim, malaka va ko'nikma hosil qilish, ularni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash hamda kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun zamin hozirlashdan iborat. "Eng yangi o'zbek adabiyoti muammolari" fanining vazifalari magistrantlarda shu fanning asosiy masalalari, mavzulari, xulosalari, umumlashmalari haqida tasavvur tug'dirish, ularni adabiy-badiiy asar tahliliga o'rgatishdan iborat. | | | |
| 6. | BAH2304 | Buxoro adabiy harakatchiligi | Tarixda mavjud mumtoz tajribalardan, shuningdek, buyuk ijodkorlar hayoti va ijodini o'rganishning ustuvor yo'nalishlari nuqtai nazaridan qarganda ushbu tanlov fanni o'qitish nihoyatda dolzarb ekani ma'lum bo'ladi. Buxorolik ijodkorlar hayoti va ijodini tanlov fan sifatida alohida bugungi kun nuchtai nazaridan o'rganish ham dolzarbdir. Fanning ahamiyati "Buxoro adabiy harakatchiligi" tanlov fanida buxorolik buyuk ijodkorlar hayoti, faoliyati, asarlarini o'qib-o'arganish va tahlil qilish orqali talabada badiiy tafakkur, tanqidiy qarash shakllantiriladi. Badiiy asarga, buyuk ijodkorlar hayoti va faoliyatiga tanqidiy va xolis baho bera olish jihatidan bu fan muhim sanaladi.Adabiyot tarixidan chuqur bilim berish, ularda bu ikki buyuk ijodkor asarlari, badiiy va ilmiy merosi bo'yicha yaxlit tasavvur uyg'otish tanlov fanining maqsadi sanaladi. | 4 | 3 | |